



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 3-son

VOLUME 4 / ISSUE 3 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.3.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov, M. Sharifova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Jurnal 24.06.2024-yilda bosmaxonaga topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4. Shartli 10,2 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 86.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAS‘UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSH)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi, (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция – Yurisprudensiya – Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Ш. Жахонов, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Й. Махмудов, М. Шарифова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Журнал передан в типографию
24.06.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 10,2. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 86.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Верховном судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” –
“Юриспруденция” – “Jurisprudence”
legal scientific and practical journal
was registered by the Press and Infor-
mation Agency of Uzbekistan on De-
cember 22, 2020 with certificate No.
1140.

The journal is included in
the list of journals of the Higher
Attestation Commission under the
Ministry of Higher Education, Science
and Innovations of the Republic of
Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent
State University of Law. All rights re-
served. Use, distribution and reproduc-
tion of journal materials are carried
out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

The journal is submitted to the Printing
house on 24.06.2024.

Paper size: A4.

Cond. p.p. 10,2. Unit: 100.

Order: 86.

Published in Printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of
Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences, Associate
Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and
Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy
in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law
(Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk,
Poland)

A. Khoshimxonov – Associate Professor of Tashkent State University
of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Axmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

X. Xayitov – Professor of the Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law
(Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State
University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent,
Uzbekistan)

S. Xolboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges
under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Raxmonkulova – Associate Professor of the University of World
Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor
of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of
Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State
University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent,
Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 8 **NARZIYEV OTABEK SADIYEVICH, IGAMBERDIYEVA XURSHIDA XISLATILLAYEVNA**
O'zbekistonda venchur fondlarni tartibga solishda bank faoliyatidagi qoidalarini qo'llash
- 17 **EGAMBERDIYEV EDUARD XAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Eksklyuziv blokcheyn va merosxo'rlik huquqi: raqamli merosni boshqarishda zamonaviy yondashuvlar

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 26 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA**
Notarial jarayon tushunchasi va uning xususiyatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 34 **XUDOYQULOVA DILOROM XOLOVNA**
Mamlakatimizda aholining ekologik savodxonligini rivojlantirishda ekologik-huquqiy targ'ibotning o'rni va ahamiyati

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 43 **XAYDAROV SHUXRATJON DJUMAYEVICH**
Insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash
jinoiyati tushunchasi hamda belgilari
- 55 **XUDAYKULOV FERUZBEK XURRAMOVICH**
Jinoyat huquqida ijtimoiy xavfli harakat tushunchasi, mohiyati va uning belgilari

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 66 **ZIYAMUXAMEDOVA SHAHNOZA TOLKUNOVNA**
-La +-sh va -lash affiksli so'zshakllar orasidagi omonimiya

YURIDIK FANLARNI O'QITISH

- 77 **ABDURASULOVA QUMRINISA RAIMKULOVNA, UMIRZAKOV BEGZOD ATABOYEVICH**
Kriminologiya fanining vujudga kelishi, dolzarb vazifalari va rivojlanish istiqbollari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

8 **НАРЗИЕВ ОТАБЕК САЪДИЕВИЧ, ИГАМБЕРДИЕВА ХУРШИДА ХИСЛАТИЛЛАЕВНА**

Регулирование венчурных фондов аналогично банковской деятельности в Узбекистане

17 **ЭГАМБЕРДИЕВ ЭДУАРД ХАЖИБАЕВИЧ, ШАИМАРДАНОВА ДИЛАФРУЗ ДИЛМУРАТОВНА**

Эксклюзивный блокчейн и наследственное право: современные подходы к управлению цифровым наследством

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ТРЕТЕЙСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ

26 **КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА**

Понятие нотариального процесса и его характерные черты

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

34 **ХУДОЙКУЛОВА ДИЛОРОМ ХОЛОВНА**

Роль и значение экологической правовой пропаганды в развитии экологической информированности населения в нашей стране

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

43 **ХАЙДАРОВ ШУХРАТЖОН ДЖУМАЕВИЧ**

Определение и характеристика преступления принуждения человека к согласию на изъятие у него органов и (или) тканей для трансплантации

55 **ХУДАЙКУЛОВ ФЕРУЗБЕК ХУРРАМОВИЧ**

Понятие, сущность и признаки общественно опасного деяния в уголовном праве

13.00.02 – ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОТРАСЛЯМ)

66 **ЗИЯМУХАМЕДОВА ШАХНОЗА ТОЛКУНОВНА**

Омонимия между словоформами с аффиксами -la + -sh и -lash

ПРЕПОДАВАНИЕ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

77 **АБДУРАСУЛОВА КУМРИНИСА РАИМКУЛОВНА, УМИРЗАКОВ БЕГЗОД АТАБОЕВИЧ**

Возникновение, актуальные задачи и перспективы развития науки криминологии

CONTENTS

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 8 **NARZIEV OTABEK SADIEVICH, IGAMBERDIEVA KHURSHIDA KHISLATILLAевна**
Applying banking activity rules to the regulation of venture funds in Uzbekistan
- 17 **EGAMBERDIEV EDUARD KHAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Exclusive blockchain and inheritance law: modern approaches to digital inheritance management

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION AND MEDIATION.

- 26 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA**
The concept of notarial process and its characteristic features

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 34 **KHUDOYKULOVA DILOROM KHOLOVNA**
The role and significance of ecological legal propaganda in developing the ecological literacy of the population in our country

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

- 43 **SHUKHRATJON JUMAEVICH KHAYDAROV**
Definition and characteristics of the crime of forcing a person to consent to obtaining his organs and (or) tissue for transplantation
- 55 **KHUDAYKULOV FERUZBEK KHURRAMOVICH**
The concept, nature and its characteristics of a socially dangerous action in criminal law

13.00.02 – THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING (BY FIELDS)

- 66 **ZIYAMUKHAMEDOVA SHAKHNOZA TOLKUNOVNA**
Homonymy between the word forms with affixes -la + -sh and -lash

TEACHING LEGAL SCIENCES

- 77 **ABDURASULOVA KUMRINISA RAIMKULOVNA, UMIRZAKOV BEGZOD ATABOEVICH**
The emergence of the science of criminology, actual tasks and development prospects

Kelib tushgan / Получено / Received: 17.05.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 27.05.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.06.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.3./MNPJ2809

UDC: 343.268.3(045)(575.1)

INSONNI UNING A'ZOLARINI VA (YOKI) TO'QIMALARINI TRANSPLANTATSIYA UCHUN OLISHGA ROZILIK BERISHGA MAJBURLASH JINOYATI TUSHUNCHASI HAMDA BELGILARI

Xaydarov Shuxratjon Djumayevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi,
kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish
kafedrası professori v.b., yuridik fanlar doktori (DSc)

ORCID: 0000-0002-8188-7410

e-mail: Xaydarovshuxrat@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyati tushunchasi, jinoyatning o'ziga xos belgilari hamda ushbu jinoyatga oid asosiy tushunchalar haqidagi masalalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyati ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lgan jinoyatlardan biri ekanligi asoslab berilgan. Bundan tashqari, insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyatining asosiy tushunchalari huquqshunos olimlar fikrlari asosida tahlil qilingan. Shu bilan bir qatorda, maqolada insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlashning predmeti ham asoslangan. Shuningdek, transplantatsiya sohasini tartibga solish hamda ushbu sohadagi huquqqa xilof xatti-harakatlar uchun javobgarlik belgilash uchun huquqiy asoslarni yaratish maqsadida "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonun, inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi bilan bog'liq yangi qonun hamda moddalar tahlil qilingan. Maqolada insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyati uchun javobgarlik nazarda tutilgan qonunchilik normalarini takomillashtirish yuzasidan ham taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, bemor, inson, a'zolar, to'qimalar, transplantatsiya, majburlash, rozilik berishga majburlash, ijtimoiy xavflilik darajasi, javobgarlik, tibbiyot xodimi, ijtimoiy xavfli qilmish, jinoiy javobgarlik, shikast yetkazish, jazo.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ И ХАРАКТЕРИСТИКА ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРИНУЖДЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА К СОГЛАСИЮ НА ИЗЪЯТИЕ У НЕГО ОРГАНОВ И (ИЛИ) ТКАНЕЙ ДЛЯ ТРАНСПЛАНТАЦИИ

Хайдаров Шухратжон Джумаевич,

доктор юридических наук (DSc), и. о. профессора
кафедры «Уголовное право, криминология и борьба с коррупцией»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В настоящей статье раскрываются понятие преступления принуждения лица к согласию на изъятие у него органов и (или) тканей для трансплантации, специфические признаки состава преступления, а также другие вопросы, связанные с основными понятиями этого преступления. Также в статье обосновано, почему преступление принуждения лица к согласию на изъятие него органов и (или) тканей для трансплантации относится к числу преступлений с высокой степенью общественной опасности. Кроме того, основные понятия преступления принуждения человека к согласию на изъятие у него органов и (или) тканей для трансплантации проанализированы на основе мнений учёных-правоведов. В качестве альтернативы в статье обосновывается собственное мнение автора о предмете преступления принуждения человека к согласию на изъятие у него органов и (или) тканей для трансплантации. Также в целях создания правовых основ для регулирования сферы трансплантации и установления ответственности за противоправные действия в этой области были проанализированы Закон Республики Узбекистан «О трансплантации органов и тканей человека» и новые статьи Уголовного кодекса. Даны предложения и рекомендации по совершенствованию правовых норм, предусматривающих ответственность за преступление принуждения лица к согласию на изъятие у него органов и (или) тканей для трансплантации.

Ключевые слова: преступление, пациент, человек, органы, ткани, трансплантация, принуждение, принуждение к согласию, степень общественной опасности, ответственность, медицинский работник, общественно опасное деяние, уголовная ответственность, причинение вреда, наказание.

THE CONCEPT AND CHARACTERISTICS OF THE CRIME OF FORCING A PERSON TO CONSENT TO OBTAINING HIS ORGANS AND (OR) TISSUES FOR TRANSPLANTATION

Khaydarov Shukhratjon Jumaevich,

Tashkent State University of Law,
Acting Professor of the Department of Criminal law,
Criminology and Anti-Corruption,
Doctor of Science in Law

Abstract. This article describes the concept of the crime of forcing a person to consent to the taking of his organs and (or) tissues for transplantation, the features of the offense, as well as issues related to the basic concepts of this crime. The article also substantiates that the crime of forcing a person to consent to the taking of his organs and (or) tissues for transplantation belongs to the number of crimes with a high degree of public danger. In addition, based on the opinions of legal scholars, the basic concepts of the crime of forcing a person to consent to the receipt of his organs and (or) tissues for transplantation are analysed. In addition, the article is based on the theme of forcing a person to consent to receiving his organs and (or) tissues for transplantation. Also, the Law “On Transplantation of Human Organs and Tissues,” “Transplantation of Human Organs and Tissues,” was adopted in order to create a legal basis for regulation of the sphere of transplantology and to establish responsibility for unlawful actions in this sphere, and the new law and articles related to it are analyzed. The article also provides proposals and recommendations on improving legal norms providing responsibility for the offense of forcing a person to consent to the taking of his organs and (or) tissues for transplantation.

Keywords: crime, patient, human, organs, tissues, transplant, coercion, forcing to consent, level of social danger, liability, medical worker, socially dangerous act, criminal liability, injury, punishment.

Kirish

Mamlakatimizda so'nggi yillarda inson hayoti va sog'lig'ini ishonchli muhofaza qilish, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlarini belgilab bergan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi sud-huquq tizimini isloh qilishning tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bosqichi bo'ldi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasining birinchi yo'nalishida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini samarali himoya qilishga to'sqinlik qiladigan huquqiy bo'shliqlar, qarama-qarshiliklar va "oq dog'lar"ni bartaraf etish hamda Jinoyat kodeksida qo'llanadigan atama va tushunchalarning mazmuniga aniq ta'rif berish hamda yagona shaklda qo'llash orqali takomillashtirish ushbu sohani rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganligi diqqatga sazovordir.

Material va metodlar

Mazkur maqolada Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan "Insonni uning a'zolari va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash" masalalari bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyoсий-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyati ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lgan jinoyatlardan biri hisoblanadi.

"Transplantologiya sohasidagi jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shundaki, ular insonning yashash va sog'liqqa bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini buzadi[1]. Transplantologiya sohasidagi jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi ko'p jihatdan ularning aksariyat hol-larda uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmalar tarkibida sodir etilishi, jarrohlar va boshqa mutaxassislarning jalb etilishi, tibbiyot muas-salariga bo'lgan ishonchga putur yetkazuv-chi oshkor etilishi qiyin bo'lgan usullarda so-dir etilishi bilan bog'liq [2].

Ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi jamiyatning axloqiy-ma'naviy asoslari bu-zilishi bilan bog'liq. Ushbu harakatlar nati-jasida o'lgan shaxsning qarindoshlariga ham zarar, avvalambor, ma'naviy zarar yet-kaziladi. Shunga ko'ra, ushbu jinoyatning obyekti sifatida jamoat axloqi namoyon bo'ladi [3]. Inson a'zo va to'qimalarini ji-noyat-huquqiy muhofaza qilishning ijtimoiy zarurati donorlik organlarining doimiy taqchilligi va ularni olish uchun ehtiyoj vu-judga kelganligi bilan bog'liq. Shu bois inson sog'lig'ini bu turdagi jinoiy tajovuzlardan jinoyat-huquqiy muhofaza qilish zarurati namoyon bo'ladi [4].

So'nggi yillarda tibbiyotda boshqa shaxs-larning a'zolari yoki to'qimalarini ko'chirib o'tkazish yo'li bilan odamlarni qutqarish yoki davolash choralari kengayib bormoq-da. Ayrim jinoiy guruhlar esa bundan o'z maqsadlari yo'lida foydalanib, shaxslarning a'zolari yoki to'qimalarini olish va kelajak-da sotish uchun fuqarolarning hayotiga yoki sog'lig'iga zarar yetkazmoqdalar [5].

Transplantatsiya sohasini tartibga so-lish hamda ushbu sohadagi huquqqa xilof xatti-harakatlar uchun javobgarlik belgilash uchun huquqiy asoslarni yaratish maqsa-

didida 2022-yil 11-mayda “Inson a’zolari va to’qimalarining transplantatsiyasi to’g’risida”gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun asosida esa 2022-yil 23-iyunda JKga inson a’zolari va to’qimalarining transplantatsiyasi bilan bog’liq 3 ta yangi modda kiritildi, shuningdek, 1 ta amaldagi 133-modda yangi tahrirda bayon etildi.

Insonni uning a’zolarini va (yoki) to’qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlashning obyekti masalasi huquqshunos olimlar tomonidan turlicha ta’riflanadi.

Xususan, A.N. Kudashov insonni uning a’zolarini va (yoki) to’qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyatining bevosita obyekti sifatida “aholi salomatligi va jamoat axloqini” [6] ko’rsatadi.

A.S. Yakimenkoning fikricha, “ushbu jinoyatning obyekti shaxs xavfsizligini ta’minlovchi, inson hayoti va sog’lig’ini muhofaza qiluvchi, insonning jismoniy holati daxlsizligini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlardan iborat. Ushbu jinoyat inson hayoti va sog’lig’ini xavf ostiga qo’yadi hamda donor bo’lishi mumkin bo’lgan insonning turli jismoniy va ruhiy tusdagi majburlovdan erkin irodasini namoyon etishga bo’lgan huquqini buzadi” [7].

Y.V. Korotkixning fikricha esa “Insonni uning a’zolarini va (yoki) to’qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlashning bevosita obyekti sifatida inson salomatligi hamda uning o’z organizmi yaxlitligiga aralashmaslik huquqini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Shuningdek, ushbu jinoyatning qo’shimcha obyekti sifatida shaxsning o’z tanasi va uning a’zolarini erkin tasarruf etish bo’yicha irodasi erkinligi namoyon bo’ladi” [4].

V. Florya esa “Insonni uning a’zolarini va (yoki) to’qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyatining obyekti – sog’liqni, jismoniy daxlsizlikni yoki ruhiy erkinligini muhofaza qilishga

qaratilgan ijtimoiy munosabatlar” deya [8] ko’rsatadi.

Yana bir guruh tadqiqotchilar ushbu jinoyat obyekti sifatida “inson shaxsining tabiiy mavjud bo’lishini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlarni” [9] ko’rsatadi. Boshqa Huquqshunoslar esa ushbu jinoyat obyekтини “Inson xavfsizligi, uning hayoti va sog’lig’ini ta’minlovchi” [10], “shaxs sog’lig’ini zarar yetkazish xavfi ostiga qo’yadigan harakatlardan muhofaza qilishni ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar” [11] deb ko’rsatadilar.

T.A. Fabrika esa ushbu jinoyatning “asosiy obyekti sifatida inson sog’lig’ining normal mavjud bo’lishini, uning organizmi yaxlitligiga aralashmaslik huquqini hamda qo’shimcha obyekti sifatida esa insonning o’z tanasi va uning a’zolarini erkin tasarruf etish huquqini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlarni [12] ko’rsatadi.

T.V. Dolgolenko yozishicha, “ushbu jinoyatning bevosita obyekti insonning o’z tanasini mustaqil biron-bir majburlovsiz tasarruf etish erkinligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi” [13].

Shu o’rinda ta’kidlash lozimki, ushbu jinoyat obyekti inson hayoti va sog’lig’i xavfsizligini ta’minlovchi ijtimoiy munosabatlar bo’lib, vafot etgan insonning qarindoshlarini murdaning a’zo va to’qimalarini transplantatsiya uchun olishga ko’ndirish maqsadida majburlash ushbu jinoyat tarkibini bermaydi.

Insonni uning a’zolarini va (yoki) to’qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlashning predmeti uning obyekti bilan chambarchas bog’liq. Ushbu jinoyatning predmeti insonning har qanday anatomik materiallari emas, balki faqatgina uning a’zolari va to’qimalari bo’lishi mumkin.

Ta’kidlash lozimki, inson a’zolari va to’qimalari aynan bir xil tushunchalar emas. Inson a’zosi uning tanasining qismi bo’lib, unga bir nechta to’qimalar kiradi. Inson a’zosi, masalan, yurak, jigar, buyrak kabilar o’z-o’zicha mustaqil fiziologik birlik hisoblanadi. Har bir inson a’zosi inson organizmida

muayyan funksiyani bajaradi. To'qima – hujayralar va hujayralararo moddalar majmui bo'lib, ular o'z o'zagi, kelib chiqishi, funksiyalari bilan birlashgan.

O'zbekiston Respublikasining "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, "inson a'zosi – inson organizmida muayyan vazifani bajaruvchi turli xil hujayralar va to'qimalarning alohida majmui", "inson to'qimasi – umumiy kelib chiqishi, tuzilishi va inson organizmida bajaradigan vazifalariga ko'ra birlashgan hujayralar hamda hujayralararo moddalar majmui" hisoblanadi.

Transplantatsiya predmeti yurak, o'pka, jigar, buyrak, oshqozonosti bezi, taloq va boshqa inson organlari bo'lishi mumkin. Inson to'qimasi sifatida yumshoq to'qimalar; tayanch-harakatlantiruvchi apparati to'qimalari; qon tomirlari va klapanlar; boshqa to'qimalarni ko'rsatish mumkin [14].

Shu o'rinda biz ham ushbu jinoyatning predmetini kengaytirishni taklif qilgan huquqshunos olimlarning [15] yondashuvini qo'llab-quvvatlaymiz. Bu orqali inson tanasining boshqa qismlarini ham jinoyat-huquqiy muhofaza ostiga olish uchun zarur huquqiy baza yaratiladi, deb hisoblaymiz. Xususan, jinoyat predmetini kengaytirib, unga "inson tanasining boshqa qismlari" degan qo'shimcha kiritish kerak. Masalan, xorijiy mamlakatlarda (Ukraina, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston) ham inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya qilish bilan bog'liq kengroq doiradagi obyektlar, shu jumladan, inson qonini undan donor sifatida foydalanish uchun zo'rlik yoki aldov yo'li bilan olish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlashning obyektiv tomonida asosiy element majburlash hisoblanadi. Aynan shu bois ham ushbu jinoyat JK 115¹-moddasi sifatida kiritilgan, chunki JK 115-moddasida (ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash) ham jinoyat

obyektiv tomoni bevosita majburlash orqali sodir etiladi.

Insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlashning zaruriy belgisi bo'lib, uni sodir etish usuli – zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish hisoblanadi. Ya'ni shaxsni o'z a'zosi yoki to'qimalarini ajratib olishga dalolat qilish, ko'ndirish, sotib olish va boshqa shu kabi xatti-harakatlar orqali sodir etilsa, ushbu jinoyat tarkibi bo'lmaydi. Agarda jinoyatni sodir etish usuli sifatida to'g'ridan to'g'ri aldash yoki jabrlanuvchining o'jiz ahvolidan foydalanish qo'llangan bo'lsa, sog'liqqa shikast yetkazishning kelib chiqqan oqibatlariga qarab, qilmish sog'liqqa o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazishga qaratilgan jinoyat sifatida malakalanishi lozim.

V. Florya ta'kidlaganidek, "majburlash deganda, insonga jismoniy (zarba berish, do'pposlash, yengil tan jarohati yetkazish, erkinligidan mahrum qilish va h.k.) yoki ruhiy zo'rlik (jismoniy zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish) qo'llash yoxud inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi ma'lumotlarni oshkor etish, mulkka shikast yetkazish yoki nobud qilish, shaxsning manfaatlariga zarar yetkazish (ishdan bo'shatish va h.k.) bilan tahdid qilish tushuniladi. Tahdid qilish ayrim hollarda zo'rlikka, masalan, kaltaklash yoki bog'lagan holda majburiy jarrohlik amaliyotini o'tkazish maqsadida tibbiyot muassasasiga yetkazish kabilarga aylanib ketishi mumkin. Bunda majburlash maqsadi insondan uning irodasiga qarshi ravishda uning a'zosi yoki to'qimasini olishga roziligini olish hisoblanadi" [9].

A.S. Yakimenkoning fikricha, majburlash deganda transplantatsiya uchun inson a'zolari va (yoki) to'qimalarini berishga ko'ndirish maqsadida jismoniy zo'rlik ishlatish yoki uni qo'llash bilan qo'rqitish orqali kechadigan faol harakatlar tushuniladi. Ushbu jinoyatda majburlashning maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi – jabrlanuvchini donor

bo'lishga, ya'ni o'z a'zo yoki to'qimalarini donorligiga rozi qilishga qaratilgan bo'ladi" [16].

V.V. Kalugin esa majburlovga "bir shaxs tomonidan boshqa shaxsga nisbatan uning erk-irodasiga mos kelmaydigan muayyan zo'ravonlik harakatlarini sodir etish" [17] sifatida ta'rif beradi. Muallif majburlovning uch belgisini ajratib ko'rsatadi: "1) majburlov aybdor tomonidan ruxsat berilmagan holda qo'llanadi; 2) majburlov usuli sifatida aybdorning jismoniy yoki ruhiy zo'rlik xususiyatiga ega, boshqa insonlarning o'z erkiga ko'ra harakatlanish qobiliyatini bostiruvchi harakatlari hisoblanadi; 3) har qanday majburlovning maqsadi majburlanayotgan shaxs tomonidan biror-bir harakatni sodir etish hisoblanadi" [18].

R.A. Adelxanyan esa: "Majburlov insonning turli huquqlariga, avvalambor, jabrlanuvchining manfaatlariga tajovuz qilish bo'lib, ushbu harakatlarning huquqqa xilofligi jabrlanuvchining o'z organlarini transplantatsiya qilishga roziligiga erishishga qaratilgan hamda turli shakllarda, shu jumladan, turli shakllarda jismoniy zo'rlik ishlatishdan iborat" – deya fikr bildiradi [19].

D.V. Popov: "Majburlov – shaxsga uni u yoki bu harakatni sodir etishi yoki etmasligi maqsadida jismoniy va (yoki) ruhiy zo'rlik va boshqa noqonuniy harakatlar (harakatsizlik) orqali qasddan, ijtimoiy xavfli va huquqqa xilof ta'sir ko'rsatish" – deb hiosblaydi. [20].

K.L. Akoyev va V.I. Zubkovalarning fikricha esa "majburlov – shaxsga donor bo'lishiga roziligini olish maqsadida nohuquqiy jismoniy yoki ruhiy ta'sir ko'rsatish" [21].

Demak, ushbu jinoyatning obyektiv tomoni insonning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash bo'yicha jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlashda jismoniy zo'rlik do-

norlikka majburlanayotgan shaxsga o'z a'zosi yoki to'qimasini berishga majburlash maqsadida jismoniy azob yetkazish orqali sodir etiladi. Ruhiy yoki jismoniy zo'rlik shaxsni donor bo'lishga ko'ndirish uchun uning yaqin qarindoshlariga nisbatan ham sodir etilishi mumkin. Basharti, rozilik majburlov ostida berilganligi jarrohlik amaliyotidan keyin aniqlansa, aybdor harakatlari qo'shimcha ravishda jinoyat qonunining boshqa moddalari bilan ham malakalanadi [22]. Jismoniy zo'rlik do'pposlash, jabrlanuvchining sog'lig'iga yengil yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazishni qamrab oladi. Aybdor ushbu jinoyatni har qanday og'irlikdagi tan jarohati yetkazish bilan qo'rqitish orqali ham sodir etishi mumkin [23].

Donorlikka ruhiy majburlash zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish orqali jabrlanuvchi irodasiga ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish deganda, kelgusida jabrlanuvchiga har qanday og'irlikdagi jismoniy zarar yetkazish imkoniyatiga ishora qilish tushuniladi [24]. Qo'rqitish og'zaki, yozma, telefon orqali, shuningdek, aybdor tomonidan shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali amalga oshirilishi mumkin, bunda qo'rqitish shakli jinoyatni malakalashga ta'sir qilmaydi, eng muhimi, jabrlanuvchi uni haqqoniy deb qabul qilishi lozim.

Qo'rqitish og'zaki, yozma, telefon orqali xabar yo'llash orqali bo'lish, jabrlanuvchiga shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali yetkazilishi mumkin. Boshqacha aytganda, majburlash usuli jinoyatni malakalash uchun ahamiyatga ega emas, muhimi jabrlanuvchi tahdidni real qabul qilishi lozim [25]. Shu bilan birga, Qo'rqitish zo'rlikka, masalan, kaltaklashga yoki tibbiyot muassasasida majburiy jarrohlik o'tkazish uchun yetkazib kelishga aylanib ketishi mumkin [26].

Insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlashning tamom bo'lish vaqti aybdor shaxsni zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish orqa-

li jabrlanuvchining o'zining a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga erishgan vaqti bilan mos keladi. Ya'ni "insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyati ayblanuvchi o'z maqsadiga erishgani yoki yo'qligidan qat'i nazar majburlashga qaratilgan harakatlar sodir etilgandan so'ng tugallangan hisoblanadi [27]. Boshqacha aytganda, jinoyat majburlash vaqtidan boshlab tugallangan hisoblanadi.

Shunga ko'ra, insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyati formal tarkibli bo'lib, jinoyat majburlashga qaratilgan harakatlar sodir etilishi bilan tamom bo'lgan hisoblanadi, bunda jabrlanuvchi rozi bo'lgan yoki bo'lmaganligining jinoyatni malakalash uchun ahamiyati yo'q.

Huquqshunos olimlar o'rtasida inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini aldov yo'li bilan, masalan, tibbiy amaliyot o'tkazish zarurati bilan olishni majburlash sifatida baholash mumkin yoki mumkin emasligi borasida ham turlicha fikrlar bildirilgan. Bir guruh olimlar tomonidan aybdor jabrlanuvchini tibbiy jarrohlik amaliyotini o'tkazish zarurati bilan bog'liq aldov ishlatish orqali o'z a'zo yoki to'qimalarini olishga ko'ndirish majburlash ekanligi [28] taklif etiladi. S.V. Borodin ham "A'zo yoki to'qimalarni berishga majburlash shakli sifatida tibbiy amaliyotni o'tkazish zarurligi tufayli aldosh shaklida ham bo'lishi mumkin"[29], – deb hisoblaydi. Yoki bo'lmasa, ayrim huquqshunos olimlar tomonidan ruhiy zo'rlik tushunchasi kengaytirib talqin etiladi hamda Jabrlanuvchini rozi qilish uchun har qanday shaklda bosim o'tkazish, shu jumladan, turli moddiy boylik, sovg'a, xizmatlar yoki pul taklif qilish [28, 30] ham kiritiladi.

Biroq bizning fikrimizcha, aldovda yoxud pul yoki sovg'a berish orqali ko'ndirishda zo'rlik yoki uni qo'llash bilan tahdid qilish bo'lmaydi, shunga ko'ra, bu harakatda JK

115¹-moddasi tarkibi bo'la olmaydi. Bunday harakatlarni Y.V. Korotkix va V.A. Smirnovlar ta'kidlaganidek, "inson sog'lig'iga tegishli shikast yetkazishga tayyorgarlik ko'rish sifatida malakalash" to'g'ri bo'ladi.

Shu bilan birga, aldov yo'li bilan transplantatsiya qilishga ko'ndirishning ijtimoiy xavflilik darajasi ham yuqori ekanligini hisobga olib, JK 115¹-moddasi obyektiv tomoni faqatgina majburlash emas, balki "aldash" bilan kengaytirish taklif etiladi.

Insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyatining obyektiv tomoni bilan bog'liq yana bir masala – ushbu harakatlar doirasini kengaytirish zarurati bilan bog'liq. Ya'ni JK "Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar" bobida faqatgina transplantatsiya uchun rozilik berishga majburlash uchun jinoiy javobgarlik belgilangani holda, "inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini olish hamda transplantatsiya qilish shartlarini va (yoki) tartibini buzish", "inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi", "insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish" kabi harakatlar uchun javobgarlik "Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar" bobida belgilangan.

Fikrimizcha, ushbu jinoyatlarda jinoyatning bevosita obyekti sifatida inson hayoti yoki sog'lig'i ham namoyon bo'lishini inobatga olib, mazkur harakatlar uchun javobgarlikni JK 115¹-moddasi doirasida, ya'ni yagona moddada ifodalash maqsadga muvofiq bo'lardi. Shu bilan birga, ushbu moddani inson a'zo va to'qimalarining noqonuniy oldi-sotdisi emas, balki noqonuniy o'tkazish deb o'zgartirish lozim. Chunki ushbu jinoiy xatti-harakatlar hamisha ham oldi-sotdi bilan bog'liq bo'lmasligi, ayirboshlash, tekinga berish yoki boshqa xatti-harakatlar orqali ham sodir etilishi mumkin.

Ushbu jinoyat subyekti umumiy subyekt bo'lib, 16 yoshga yetgan, aqli raso jismoniy

shaxs hisoblanadi. Jinoyatni JK 115¹-moddasi bilan malakalash uchun jinoyat subyektining faoliyat turi va kasbiy tayyorgarligi, mutaxassisligi ahamiyatga ega emas.

Ushbu jinoyat maxsus subyekt – tibbiyot xodimi tomonidan ham sodir etilishi mumkin [31]. Xususan, jinoyat subyekti tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, sog'liqni saqlash muassasasining inson a'zosi yoki to'qimasi transplantatsiyasi bilan shug'ullanuvchi tibbiyot xodimi, shuningdek, jabrlanuvchidan uning organ yoki to'qimalarini olishga ko'ndirish maqsadida uni majburlash bo'yicha harakatlarni sodir etgan boshqa har qanday shaxs bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, jinoyat subyektiga jabrlanuvchi moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoki boshqa jihatdan qaram bo'lgan shaxs bo'lishi ham mumkin.

Ta'kidlash lozimki, JK 115¹-moddasida jabrlanuvchini majburlash uning a'zo yoki to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berish maqsadida sodir etiladi. "Transplantatsiya" tushunchasiga legal ta'rif jinoyat qonunida uchramaydi, biroq "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida transplantatsiyaga "resipientda mavjud bo'lmagan yoxud shikastlangan, o'zining muhim hayotiy vazifalarini bajarishga qodir bo'lmagan a'zolari va (yoki) to'qimalarni tirik donordan yoki inson murdasidan olingan a'zolariga va (yoki) to'qimalarga jarrohlik amaliyoti yoki muolaja o'tkazish yo'li bilan almashtirish" sifatida ta'rif berilgan.

Transplantatsiya tushunchasiga xalqaro hujjatlarda ham ta'rif berilgan. Xususan, 2002-yil 24-yanvardagi Inson a'zolari yoki to'qimalari bo'yicha inson huquqlari va biotibbiyot haqidagi konvensiyaga qo'shimcha protokolga ko'ra, transplantatsiya – bir shaxsning a'zosi yoki to'qimasini to'liq kesib olish va ushbu a'zo yoki to'qimani boshqa shaxsga implantatsiya qilish, shu jumladan, tayyorgarlik ko'rish va saqlash bo'yicha barcha taomillar (2-modda) [32].

Tirik donor yoki mordaning a'zolari yoki to'qimalarini transplantatsiya qilishga faqat kasal hayotini saqlab qolish yoki uning sog'lig'ini tiklashda tibbiy vositalarning boshqa usullari yordam berishi mumkin bo'lmagan holdagina, shuningdek, inson a'zolarining yoki to'qimalarining transplantatsiyasi zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa mutaxassis-shifokorlar tomonidan berilganda yo'l qo'yiladi [5].

M.N. Maleina esa transplantatsiyani "hayotni saqlash va sog'liqni tiklash maqsadida a'zo va (yoki) to'qimalarni ko'chirib o'tkazish" [33] sifatida ta'riflaydi. Ushbu ta'rifda transplantatsiya maqsadi yetarlicha ochib berilmagan, ushbu amaliyot boshqa maqsadlarda, masalan, tashqi ko'rinishini yaxshilash maqsadida ham qilinishi mumkinligi inobatga olinmagan.

Boshqa bir guruh mualliflar fikricha, "inson a'zo va to'qimalari transplantatsiyasi yuqori ta'sir samaradorligiga ega bo'lgan murakkab jarrohlik amaliyoti bo'lib, transplantatni donordan resipientga o'tkazish orqali uning hayotini saqlab qolish, sog'lig'ini tiklashni nazarda tutadi" [34].

S.S. Tixonovanning fikricha, "transplantatsiya – inson organizmining nuqsonli yoki yaroqsiz qismini jarrohlik yo'li bilan donor tanasidan olingan sog'lomiga almashtirish" [24]. Biroq transplantatsiya hamisha ham inson a'zosi yoki to'qimasini boshqa shaxsga ko'chirib o'tkazish maqsadida amalga oshirilavermaydi.

N.E. Krilova fikricha, "transplantatsiya – bir inson organizmidan (donordan) transplantatni (a'zo, to'qima, hujayra) kelgusida uni boshqa inson (resipient) organizmiga uning hayoti sifatini yaxshilash, hayotini saqlab qolish, sog'lig'ini qayta tiklash maqsadida qo'yish uchun ajratib olish bo'yicha tibbiy amaliyotning bir turi hisoblanadi" [35].

Xulosalar

Transplantatsiya amaliyotda hamiha ham ezgu maqsadlarni ko'zlayvermaydi. Transplantatsiya inson hayoti sifatini

yaxshilash yoxud ajratib olingan a'zo yoki to'qimani sotish maqsadida ham amalga oshirilishi mumkin.

Insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash subyektiv tomondan aybning to'g'ri qasd shakli bilan tavsiflanadi. Ya'ni jinoyat subyektiv tomondan to'g'ri qasd bilan sodir etiladi, bunda aybdor shaxsning ongi muayyan maqsad – jabrlanuvchini uning u yoki bu a'zosi yoki to'qimasini olishga ko'ndirish bilan harakat qilayotganligini qamrab oladi. Shu bilan birga, aybdor jabrlanuvchida kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarga nisbatan befarq munosabatda bo'ladi. Ushbu jinoyat motivi sifatida transplantatsiya uchun inson a'zo va to'qimalarini olish istagini ko'rsatish mumkin [36].

Jinoyat maqsadi inson a'zosi yoki to'qimasini boshqa shaxsga transplantatsiya qilishga majburlash yo'li bilan olib qo'yish hisoblanadi. Jinoyat motivi g'arazli yoki karera qilish (masalan, rahbariyat oldida ko'zga ko'rinish), shuningdek, boshqa shaxsning hayoti va sog'lig'i hisobidan o'ziga yaqin kishiga yordam ko'rsatish istagi bo'lishi mumkin [8].

Jinoyat maqsadi donorlik organlaridan boshqa shaxsga o'tkazish maqsadida foydalanishdan iborat. Ta'kidlash lozimki, inson a'zo va to'qimalaridan boshqa maqsadlarda foydalanish jinoyat qonunining boshqa moddalari bo'yicha javobgarlikka sabab bo'ladi [37].

O'z navbatida, ushbu jinoyatda uning maqsadi, ya'ni olinishi lozim bo'lgan inson a'zosi yoki to'qimasini keyinchalik transplantatsiya qilish qilmishni malakalashning zaruriy sharti sifatida nazarda tutilgan.

Jinoyat maqsadlarini ham kengaytirish kerak, deb hisoblaymiz. Chunki inson a'zo va to'qimalarini olish faqat transplantatsiya uchun emas, balki boshqa tajriba o'tkazish, turli marosimlar va boshqa maqsadlar uchun ham qilinishi mumkinligini inobatga olish kerak. Shu bois JK 115¹-moddasida "transplantatsiya va boshqa maqsadlarda olish"

degan tahrirdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini hamda amaliyot materiallarini tahlil qilish asosida inson a'zolarini, to'qimalarini va (yoki) tanasining boshqa qismlarini transplantatsiya qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzish muammosini har tomonlama tartibga solish va kelgusi faoliyatda bunday xatolarga yo'l qo'yilishining oldini olish uchun jinoyat huquqi nazariyasini rivojlantirish va jinoyat qonunini takomillashtirish bo'yicha quyidagi JK 115¹-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

"115¹-modda. Inson a'zolarini, to'qimalarini va (yoki) tanasining boshqa qismlarini transplantatsiya qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzish

Insonni uning a'zolarini, to'qimalarini va (yoki) tanasining boshqa qismlarini transplantatsiya yoxud boshqa maqsadlar uchun olishga rozilik berishga majburlash, zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib yoxud aldab sodir etilgan bo'lsa, –

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yildan uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) ojiz ahvolda ekanligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan;

b) moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoki boshqa jihatdan aybdorga qaram bo'lgan shaxsga nisbatan;

d) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;

e) homiladorligi ayon bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa, –

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalari savdosi, ularni noqonuniy egallash, o'tkazish, saqlash yoki tashish –

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yil-

gacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, –

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yuqorida bildirilgan takliflarning amalga oshirilishi insonni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyatining kelib chiqish sabablarini kamaytiradi va jinoyatchilikning oldini olish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Chernysheva Yu.A. Voprosy ugovno-pravovoy otsenki v sfere donorstva organov i tkaney cheloveka i ikh transplantatsii (peresadki) v Rossiyskoy Federatsii [Issues of criminal legal assessment in the field of donation of human organs and tissues and their transplantation (transplantation) in the Russian Federation]. *Law and Legal*, 2021, no. 6, pp. 70–71.
2. Getsmanova I.V. Problemy i kollizii v pravom uregulirovaniy transplantatsii [Problems and conflicts in the legal regulation of transplantation]. *Siberian Medical Review*, 2014, no. 1 (85), pp. 101–106.
3. Khramov S.M. Protivopravnyye deystviya v sfere primeneniya sovremennykh meditsinskikh tekhnologiy i ikh ugovno-pravovaya kvalifikatsiya [Illegal actions in the field of application of modern medical technologies and their criminal legal qualifications]. Development of sciences of the anti-criminal cycle in the light of global challenges to society: Proceedings of the All-Russian correspondence scientific and practical conference with international participation (Saratov, 2020, October 16). A.G. Blinov, E.V. Kobzeva (Eds.). Saratov, Saratov State Law Academy, 2021, pp. 207–208.
4. Korotkikh Ye.V. Retrospektivnyy analiz otechestvennogo zakonodatel'stva o transplantatsii organov i tkaney cheloveka [Retrospective analysis of domestic legislation on transplantation of human organs and tissues]. *Bulletin of the Vyatka State Humanitarian University*, 2010, vol. 2 (1), pp. 68–69.
5. Abdulxakov Ya.A., Axmadaliev E.A. Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishning o'ziga xos jihatlari [Peculiar aspects of the investigation of crimes related to the transplantation of human organs and tissues]. *Investigative Practice*, 2022, no. 14, pp. 4–5.
6. Kudashov A.N. Ugolovno-pravovyye problemy transplantatsii organov i tkaney cheloveka v Rossiyskoy Federatsii [Criminal legal problems of transplantation of human organs and tissues in the Russian Federation]. Stavropol, North-Caucasus Federal University, 2009, p. 24.
7. Yakimenko A.S. Pravovyye osnovy stanovleniya i razvitiya transplantologii v ugolovnykh pravakh Rossii [Legal basis for the formation and development of transplantology in criminal law of Russia]. Proceedings of dissertation research of adjuncts and applicants of the Russian Yuiy Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation, Rostov-on-Don, 2005, pp. 31–32.
8. Floriya V. Prinuzhdeniye litsa k izyatiyu organov ili tkaney s tselyu transplantatsii [Forcing a person to remove organs or tissues for the purpose of transplantation]. *Law and Life*, 2013, no. 1, pp. 6–7.
9. Kapitonova Ye.A., Romanovskaya O.V., Romanovskiy G.B. Pravovoye regulirovaniye transplantologii [Legal regulation of transplantology]. Moscow, Prospekt, 2016, pp. 55–56.
10. Romanenkov R.L. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu RF [Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation]. Moscow, 2004, p. 156.

11. Rossiyskoye ugolovnoye pravo. Osobennaya chast [Russian criminal law. Special part]. M.P.Zhuravleva, S.I. Nikulina (Eds). Moscow, 1998, p. 66.
12. Fabrika T.A. Problemy ugolovnoy otvetstvennosti za prinuzhdeniye k izyatiyu organov ili tkaney cheloveka dlya transplantatsii [Problems of criminal liability for coercion in the removal of human organs or tissues for transplantation]. Chelyabinsk, 2007, pp. 12–13.
13. Dolgolenko T.V. Prestupleniya protiv lichnosti [Crimes against the person]. Krasnoyarsk, Siberian Federal University, 2011, p. 87
14. Gadzhimagomedova Sh.S., Magomedova A.M., Omarova D.R. Prinuzhdeniye k izyatiyu organov ili tkaney cheloveka dlya transplantatsii [Forcing to remove human organs or tissues for transplantation]. Moscow, *Economic Journal*, 2019, No. 2, pp. 619–620.
15. Yakimenko A.S. Predmet prinuzhdeniya k iz'yatiyu organov i (ili) tkaney cheloveka [The subject of coercion to remove human organs and (or) tissues]. Krasnodar, *Scientific Works of Legal Scholars of the North Caucasus Region*, 2006, iss. 11, pp. 41–42.
16. Yakimenko A.S. Ugolovno-pravovaya kharakteristika nasiliya, napravlenno na prinuzhdeniye k izyatiyu organov ili tkaney cheloveka dlya transplantatsii [Criminal legal characteristics of violence aimed at forcing the removal of human organs or tissues for transplantation]. *Lawyer*, 2006, no. 4, pp. 33–34.
17. Kalugin V.V. Fizicheskoye i psikhicheskoye prinuzhdeniye v ugolovnom prave [Physical and mental coercion in criminal law]. Stavropol, 2001, p. 19.
18. Kalugin V.V. Fizicheskoye ili psikhicheskoye prinuzhdeniye kak obstoyatelstvo, isklyuchayushcheye prestupnost' deyaniya. [Physical or mental coercion as a circumstance excluding the criminality of an act]. Moscow, 2001, pp. 30–31.
19. Ugolovnoye pravo Rossii [Criminal law of Russia]. R.A. Adelkhanyan, A.V. Naumova (Eds.). Moscow, 2004, p. 285.
20. Popov D.V. K voprosu o sootnoshenii ugolovno-pravovykh ponyatiy: prinuzhdeniye i nasiliye [On the issue of the correlation of criminal legal concepts: coercion and violence]. *Current issues of the criminal process of modern Russia: Interuniversity*. Ufa, 2003, p. 35.
21. Zubkova V.I. Prestupleniya protiv zdorovya [Crimes against health]. G.N. Borzenkova, V.S. Komissarova (Eds.). Moscow, 2002, p. 176.
22. Krylova N.Ye. Ugolovnaya otvetstvennost' za prinuzhdeniye k donorstvu organov i tkaney cheloveka po zakonodatel'stvu Rossii i Ukrainy [Criminal liability for coercion to donate human organs and tissues under the legislation of Russia and Ukraine]. *Vestnik of the Moscow University, ser.. 11: Right*, 2004, no. 5, p. 41.
23. Khayrutdinov F.R. Otvetstvennost' za prestupleniya protiv zdorovya lichnosti [Responsibility for crimes against personal health]. Available at: www.abstract.na5.ru/512146-6
24. Tikhonova S.S. Prizhiznennoye i posmertnoye donorstvo v Rossiyskoy Federatsii, voprosy ugolovno-pravovogo regulirovaniya [Lifetime and posthumous donation in the Russian Federation, issues of criminal law regulation]. St. Petersburg, 2002, p. 101.
25. Gerasimova Ye.V. Prinuzhdeniye k iz'yatiyu organov ili tkaney cheloveka [Coercion to remove human organs or tissues]. *Lech Russica*, 2017, vol. 4 (125), pp. 203–204.
26. Khomenko S.M., Kalinichenko O.I. Ugolovnaya otvetstvennost' za prinuzhdeniye k transplantatsii organov i tkaney cheloveka v sovremennoy Rossii [Criminal liability for forced transplantation of human organs and tissues in modern Russia]. *Bulletin of the Taganrog Institute of Management and Economics*, 2019, no. 1, pp. 125–126.
27. Tirsikh A.A. Pravovoy aspekt izyatiya organov i tkaney cheloveka dlya transplantatsii [Legal aspect of the removal of human organs and tissues for transplantation]. *Current problems of legal regulation of medical activities: Proceedings of the 1st All-Russian scientific and practical conference*. S.G. Stetsenko (Ed.). Moscow, Yurist Publ., 2003, p. 158.
28. Glashev A.L. Medical law: prakticheskoye rukovodstvo dlya yuristov i medikov [Medical law: a practical guide for lawyers and doctors]. Moscow, 2004, p. 69.

29. Borodin S.V. Statya 120 "Prinuzhdeniye k izyatiyu organov ili tkaney cheloveka dlya transplantatsii" Ugolovnogo kodeksa RF [Article 120 "Coercion to remove human organs or tissues for transplantation" of the Criminal Code of the Russian Federation]. Available at: <http://www.az-design.ru/Projects/AZLibrCD/Law/CrimnLaw/UKRF97/>
30. Subbotina I.V. Ugolovnaya otvetstvennost za prinuzhdeniye k soversheniyu tranzaktsii ili otkaz ot yeye soversheniya. [Criminal liability for coercion to complete a transaction or refusal to complete it]. Pyatigorsk, 2007, p. 90.
31. Grishin D.A., Khomyakova M.A. Kriminalnaya transplantatsiya i kollizii rossiyskogo zakonodatelstva [Criminal transplantation and conflicts of Russian legislation]. *Russian Law*, 2018, no. 2, pp. 22–23.
32. Additional Protocol to the Convention on Human Rights and Biomedicine regarding transplantation of organs or tissues of human origin. 2002, January 24. SPS Consultant Plus.
33. Maleina M.N. Chelovek i meditsina v sovremennom prave [Man and medicine in modern law]. Moscow, 1995, p. 76.
34. Kozlov A.V., Dosyukova T.V. Aktual'nyye problemy kvalifikatsii prestupleniy, stavyashchikh pod ugrozu zhizn' i zdorov'ye cheloveka [Current problems of qualification of crimes that endanger human life and health]. *Bulletin of Moscow University named after S.Yu. Witte*, 2019, vol. 3 (21), pp. 79–80.
35. Krylova N.Ye. Ugolovnoye pravo i bioetika: problemy, diskussii, poisk resheniy [Criminal law and bioethics: problems, discussions, search for solutions]. Moscow, 2006, p. 36.
36. Yakimenko A.S. Nekotoryye voprosy, svyazannyye s sovershenstvovaniyem ugolovnogo zakonodatelstva v sfere prinuzhdeniya k izyatiyu organov i (ili) tkaney cheloveka [Some issues of improving criminal legislation in the field of coercion to remove human organs and (or) tissues]. Criminal legal policy: Proceedings of the All-Russian scientific and practical conference. Rostov-on-Don, RYUI, Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation, 2006, pp. 33–34.
37. Yakimenko A.S. Ugolovnaya otvetstvennost' za prestupleniye, svyazannoye s nezakonnym iz'yatiyem organov i (ili) tkaney cheloveka [Criminal liability for crimes related to the illegal removal of human organs and (or) tissues]. Rostov-on-Don, 2007, pp. 11–12.